

TA'LIM TARAQQIYOTI DAVRIDA O'QUV AXBOROTLARINING MAZMUNDORLIGI DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Z.Rahmonova
ADU Katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya: ushbu tezisda ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadni belgilash, tashkil etish jarayoni, darslardagi axborot uzatish jarayonlari, pedagogik texnologiyalarning qo’llanishi borasida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Axborot texnologiyalari, ta’lim, o’quv-bilish, ta’lim-tarbiya, axborot texnologiyalari, kompyuter internet, e – mail, masofadan o’qitish.

Ta’lim maqsadi mutaxassislikning modeli va davlat ta’lim standartlari talabiga mos shakllanadigan bilim, ko’nikma va malakalar tizimidan iborat. O’quv predmetining maqsadi mutaxassis tayyorlash maqsadining elementlaridan biridir. Ma’lum bir mavzuning o’qitilishi maqsadi esa o’quv predmeti maqsadi tizimining elementidir va hokazo. Maqsad - bu o’quv jarayonining boshlanishi. Shuningdek ta’lim mazmunini talab qilingan darajada o’zlashtirishning shartidir.

Ta’lim-tarbiyaning maqsadi ob’ektiv harakterga ega. U har bir jamiyatning moddiy-ma’naviy ehtiyojlaridan hosil bo’ladi, ijtimoiy buyurtma sifatida davlat hujjatlarida o’z aksini topadi. Pedagogik tizimning barcha qismlari ta’limning maqsadiga bog’liq va uni ruyobga chiqarishga xizmat qiladi. Shaxsni, mutaxassisni shakllantirish maqsadi ta’limning mazmuni (o’quv rejasi, o’quv dasturi, darsliklar)ni belgilaydi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda har bir o’qituvchi o’zi o’qitadigan o’quv predmetining maqsadi va har bir dars maqsadini belgilab oladi. Yoki bularni umumlashtiradigan bo’lsak pedagogik tizim oldidagi maqsadni strategik maqsadlar va didaktik maqsadlarga bo’lish mumkin.

Maqsad asosida ta’lim va tarbiyaning mazmuni belgilanadi. Bu davlat ta’lim standartlari asosida o’quv rejasi, dastur va darsliklarda belgilab beriladi.

O’qituvchilar odatda juz’iy o’quv maqsadlarini quyidagi yo’llar bilan belgilaydilar.

1. Maqsadlarni ta’lim mazmuniga binoan belgilash.
2. Ta’lim maqsadini o’qituvchi faoliyati orqali aniqlash.
3. Ta’lim maqsadlarini o’quvchi shaxsining ruhiy, aqliy, ahloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash.

Masalan, “Kuzatilgan jonli tabiat hodisalarini tahlil etish malakasini hosil qilish”, “Ko’paytirish va bo’lishga doir amallarni mustaqil bajarish qobiliyatini o’stirish”.

4. Talabani o’quv-bilish faoliyati orqali qo’yish: “Mashg’ulotning maqsadi - yuz ichida qushish va ayrishga doir masalalar yechish”. Bunda ham mashg’ulotdan kutilgan natija e’tibordan chetda qoladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta’lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o’qituvchi yoki o’quvchi faoliyati orqali belgilash mashg’ulotdan kutilgan natija haqida to’liq tasavvur bermaydi. Ta’lim natijasini o’quvchining ko’zga ko’rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin. O’qituvchi ta’lim maqsadi-natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan (harakat, nutq) belgilarini aniq, yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan maqsadni belgilash usulining mohiyati shundan iboratki, ta’lim maqsadi, o’quvchining harakatlarida aks etgan o’qish-o’qitish natijalari orqali ifodalanadi va bu harakatlarni muallim yoki biror ekspert ko’rib, eshitib bilishi yoki o’lchashi mumkin. AqSh, Angliya va boshqa ayrim mamlakatlarda ta’limning maqsadi o’qituvchi va talabalar uchun alohida - alohida ifodalanadi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Ta’lim texnologiyasida didaktik jarayon asosiy o’rinni egallaydi. Chunki didaktik jarayonda ta’limning tashkiliy shakllari ham texnik vositalar ham, o’qituvchi faoliyati ham o’z aksini topadi.

Pedagogik tizim nazariyasidan kelib chiqqan holda didaktik jarayon (DJ) tarkibini quyidagi simvolik formula bilan ko’rsatish mumkin.

$$DJ = M + O'F + B.$$

Bunda M - didaktik jarayon motivi, O’F - bu o’quvchilarning o’quv bilish faoliyati tarkibi-o’quv faoliyati-deb qisqartirib olingan, B-boshqarish yoki o’qituvchi, ta’limning texnik vositalari yordamida amalga oshiriladigan o’qituvchi faoliyati strukturasi.

Har qanday didaktik jarayonda motiv hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Motivlarga o’quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, uning shaxsiy qiziqishlarini ichki ehtiyojga aylantiradi. Albatta motivlarni hosil qilish va unga o’quvchi qiziqishini kam yoki ko’p bo’lishi o’qituvchining mahoratiga bog’liq.

O’quv jarayonining hamma bosqichlarida asosiy e’tibor ta’lim natijasiga erishishga qaratiladi.

Pedagogik texnologiya usuli tarkibiga umumlashtirib aytganda quyidagilar kiradi:

1. Ta’limning umumiy maqsadlari, muhim masalalari tasnifi.
2. Oydinlashtirilgan maqsad (o’quv vazifa)larini ishlab chiqish.
3. Ta’limning maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish.
4. Maqsadlarga erishish usullari.
5. Ta’lim maqsadlariga erishilganini baholash.

An’anaviy o’qitish texnologiyasida bilimlar o’qituvchining bevosita bayoni orqali amalga oshirilsa, yangi pedagogik texnologiyada esa o’qituvchi bu jarayondan bir muncha ozod qilinadi. O’quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi o’qituvchi va o’quvchilarning matnlar bilan ishlash uchun ham yangi imkoniyatlar vujudga keltiradi. Yangi axborot texnologiyasi bo’yicha ta’lim oluvchilar texnologik kartalarga ega bo’ladilar va ularni tadqiq etish, o’rganish orqali ilmiy izlanish salohiyati qaror topadi.

Har qanday metod yoki ta’lim texnologiyasining samaradorligi unda erishilgan natija, moddiy va ma’naviy resurslar, vaqt sarfi bilan o’lchanadi. Ta’lim natijalari ham nazorat ishlari, reyting ballari, test surov natijalari kabilar vaqt sarfi bilan o’lchanadi. Aslini olganda axborot texnologiyasi jamiyatning umumiy axborotlashuv qonuniyatlariga muvofiq tarzda ta’lim jarayonini tubdan o’zgartirishga olib keladi. Bu esa axborot texnologiyasining ta’limda joriy etilishining muhim va asosiy tomoni hisoblanadi. Axborot bu insonlarning bir - biriga yozma, og’zaki signallar yordamida o’zatiladigan ma’lumotdir.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi, avvalo, pedagogika, psixologiya va kibernetika yutuqlariga tayanadi. Ya’ni ta’lim jarayoniga turli axborot texnologiyalari kompyuter internet, interanet, e - mail (elektron pochta) telefon kabi aloqa turlarining kirib kelishi bilan harakterlanadi. Bu ta’limni takomillashtirishga, uni dunyo taraqqiyoti darajasiga olib chiqishga katta imkoniyat yaratadi. Birgina internetning o’zi o’quvchilarni dunyo fani va texnikasi yutuqlari bilan bog’laydi. Talabalarni mustaqil o’qish, o’rganish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ustiradi. Yangi pedagogik texnologiyalarning eng muhim xususiyati ham unda axborot texnologiyalarining keng qo’llanishidir.

Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi turli sotsial guruhlarining ta’lim sohasidagi ehtiyojlarining qondirilishiga yordam beradi. Masofadan o’qitish yordamida turli kasalliklar oqibatida, nogiron yoki geografik muammolar tufayli ta’lim olishi qiyin bo’lgan odamlarni o’qitish muammosi hal etiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muammolari ham samarali hal etiladi.

XXI asr ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarining keng qo’llanishi bilan

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

xarakterlanadi. Shuning uchun ham XXI asr maktabini tasavvur qilgan holda ta’limni tashkil etish yo’llarini izlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Azimova Z.E.* (2009) Integrated diagnosis of students' interpersonal relations. Diss... cand. ped. science - Tashkent, P.80.
2. *Abdurakhmanova S. Sh.* (2023) Metodika fanlarni o‘qitish texnologiyasi fanidan amaliy-seminar mashg‘ulotlar va metodikalar [Methodology, practical-seminar exercises and methods from the science of science teaching technology] [Text]: Study guide / - Tashkent: Ilm-ziyo-zakovati, – P.119.
3. *Gasheva L.V., Shlykova N.I.* Bakalavrlar tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. <http://www.psu.ru/podrazdeleniya/osnovnye-podrazdeleniya/osnovnye-uchebnye/kafedra-pedagogiki/> 2018 yil 18 b.
4. *Abdurakhmonova S.Sh., Ergasheva S.U.* (2023) Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishining mazmuni [The content of cooperation between students and parents by means of pedagogical practice] Science and education scientific journal, Vol. 4. Issue 7. – P. 484.